

## QODIRIYSHUNOS OLIM (M.Qo'shjonov ijodi misolida)

Farg'ona davlat universiteti

4-bosqich talabasi **Rashidova Gulyora Shuxrat qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Matyoqub Qo'shjonovning "Qodiriy erksizlik qurboni" asarini tahlil qilish orqali yaratildi. O'zbek adabiyotida o'zining o'chmas asarlari bilan nom qoldirgan Abdulla Qodiriy, asarlarining adabiyotimizda tutgan o'rni batafsil yoritiladi. Matyoqub Qo'shjonov adabiy tanqidi asosida Qodiriy asarlaridagi bosh mavzu uyg'un holatda ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** roman, tanqid, xarakter, syujet, obraz, klassik, milliylik, Matyoqub Qo'shjonov

Ma'lumki o'zbek adabiyotida roman janrining maydonga kelishi, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bilan bog'liqdir. O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani orqali xalqimiz kitobxonlari qalbidan chuqur joy egalladi. Asar yozib xalqimizga taqdim etilgandan keyin bir necha yillar davomida tanqid, va bahs-munozaralarsiz qoldi. Asar haqida bildirilgan iliq va "qaynoq" fikrlarni Matyoqub Qo'shjonov o'zining "Qodiriy erksizlik qurboni" asarida chuqur ilmiy tahlil qilib berdi. "O'tkan kunlar" asari haqida to'qilgan bo'htonlar va yolg'on-yashiq gaplarni asossiz ekanligini, ushbu asari orqali asoslab beradi. Adibning o'quvchi kitobxon qalbiga kira olgani va o'z fikrini to'la qonli yetkaza olish qirralarini ochish baxti Matyoqub Qo'shjonovga nasib etdi. Matyoqub Qo'shjonov boshqa munaqqidlardan farqli o'laroq, asar syujetiga emas balki, asar qahramonlarining xarakterlariga ko'proq ahamiyat berdi. Matyoqub Qo'shjonov Qodiriy ijodini shunchaki biografik faktlar asosida emas, balki chuqur estetik tahlil orqali ochadi. Olim yozuvchining tasvirlash mahoratini yuqori baholaydi. Qodiriy asarlaridagi til go'zalligi xarakterlar yaratish mahorati zahirida milliylik yashashini isbotlaydi. Matyoqub Qo'shjonov asarda Otabek va Kumush obrazlariga, ularning xarakterlariga tayanadi va bu orqali asardagi bosh mavzuni to'laqonli

ochib beradi. Mustabid tuzum aynan shu milliylikdan xalqning o'zligini anglashidan qo'rqan edi. Matyoqub Qo'shjonov M. Shverdin, Sotti Husayn va Oybeklarning asar haqida bildirgan fikrlarini bir joyga jamladi va ularga o'z munosabatini bildirdi. Oradan bir necha vaqtlar o'tgandan keyin yozuvchini "Mehrobdan chayon" romani dunyo yuzini ko'rdi. Munaqqidlar har ikkala asar syujeti o'xshashligi va hatta qahramonlarning kelib chiqish mansablari ham deyarli o'xshashligini ta'kidlashadi. Aslida esa har ikkala roman ham tarixiy mavzuda yaratilgani uchun Abdulla Qodiriy juda ko'p ta'nalarga uchragani Matyoqub Qo'shjonov asarida yozib o'tadi. Ammo nazariy jihatdan bu ta'nalarning birortasi ham asosli emas edi. Matyoqub Qo'shjonovning ta'biri bilan aytganda, Qodiriyning "aybi" -uning o'ta cheksiz mahorati va o'z millatiga cheksiz sadoqatli bo'lganidir. Sho'ro yillar davomida Otabek, Kumush Anvar, Ra'no kabi obrazlarni "burjua dunyoqari vakillari" deb kelgan edi. Matyoqub Qo'shjonov esa ularning har birida o'zbek millatining eng go'zal axloqiy fazilatlari, yuksak ma'naviyatga bo'lgan intilish borligini isbotlaydi. Abdulla Qodiriy haqida qariyb 20 yil davomida adabiyotimizda iliq fikrlar yozilmagan. Keyinchalik zamon o'zgardi, 50-yillarda adabiyotimizda haqiqiy jonlanish boshlandi. Abdulla Qodiriy haqida aytilgan barcha tuhmatlar asossiz deb topildi. Biroq, afsuski, Abdulla Qodiriyning hayoti qisqa bo'ldi. "Agar u tirik bo'lganda, bu fikrlarga o'z munosabatini bildirgan bo'lardi" - deb aytadi Matyoqub Qo'shjonov. Matyoqub Qo'shjonov har bir klassik ijodkorning adabiyotda o'z o'rni, o'z yo'nalishi borligi va mana shular tufayli ular ulug'ligini o'z asarida ta'kidlab o'tadi. O'zbekiston Kompartiyasi Abdulla Qodiriy tug'ilgan kunini 95 va 100 yilliklarini nishonlash to'g'risidagi qarori ulug' adib, o'ziga xos iste'dod egasi Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish va qadrlash yangi bosqichga ko'tarilganidan darak berardi. Ro'yxatlarda tuzukroq nom olmagan rasmiy doiralarda ikkinchi darajali yozuvchi hisoblanib kelgan, nomunosib hisoblangan adib endilikda o'zbek adabiyotining yirik klassigi sifatida tan olinishi to'g'risida Matyoqub Qo'shjonov faxr bilan yozadi.

Matyoqub Qo'shjonovning "Qodiriy erksizlik qurboni" asari Abdulla Qodiriyning murakkab hayot yo'lini anglash, uning ijodiy merosini o'rganishimizda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Matyoqub Qo'shjonov. Qodiriy- erksizlik qurboni - Toshkent: Fan nashryoti
2. Yo'ldoshev. Q. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent: Universitet, 2005